

"Qo'shma gap haqida umumiy ma'lumot. Qo'shma gap qismlarini bog'lovchi vositalar" mavzusida ochiq dars o'tkazildi

Bugun 18-dekabr SamDCHTI akademik litsey **206-guruh o'quvchilari ishtirokida** ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi **Kuvatova Nafisa Zayerjonovna** tomonidan **"Qo'shma gap haqida umumiy ma'lumot. Qo'shma gap qismlarini bog'lovchi vositalar" mavzusida ochiq dars o'tkazildi.**

Dars davomida zamonaviy ta'lim metodlari, jumladan, **"Aqliy hujum", "Izohiga ko'ra top", "Mozaika", "Asalari ini", "Savatcha"** kabi qiziqarli va ijodiy yondashuvlardan foydalanildi. Shuningdek, dars musobaqa tarzida o'tkazilib, o'quvchilarning faolligini oshirishga alohida e'tibor qaratildi. Eng faol va bilimli o'quvchilardan tashkil topgan g'olib guruhga esdalik sovg'alari topshirildi.

Mazkur ochiq dars o'quvchilarning mavzu bo'yicha bilimlarini mustahkamlash va fan bilan shug'ullanishga bo'lgan qiziqishini oshirishda samarali bo'ldi. Shu kabi ijodiy darslar ta'lim jarayonini yanada mazmunli va samarador qiladi.













SamDChTI akademik litseyi axborot xizmati